

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA SIFAT SO'Z TURKUMINI MAK TAB FAOLIYATIDA QO'LLASH

*Andijon davlat pedagogika instituti
Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyot yo'naliishi
2-kurs talabasi
Ma'murjonova Diyora*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sifat so'z turkumini modellashtirish va maktab faoliyatida qo'llash usullari haqida.

Kalit so'zlar:sifat so'z turkumi,lingvistik modellashtirish,so'z yasalishi.

ANNOTATION

This article is about the methods of modeling and applying the adjective phrase in school activities.

Key words: adjective vocabulary, linguistic modeling, word formation.

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена способам моделирования и применения словосочетания прилагательного в школьной деятельности.

Ключевые слова: прилагательная лексика, лингвистическое моделирование, словообразование.

Kirish.Til – eng muhim muloqot vositasidir.Til o'ziga xos tarixiy taraqqiyot tizimiga,murakkab strukturasiga ega.A.Rahimov Beryozinning quyidagi fikrlarini keltirgan “Til sistema sifatida aynan matematikaning o'zidir.Matematika aniq fan bo'lib,formulalar munosabati orqali reallashadi.Til ham matematika singari anqlikni talab qiladi va unda ikki yoki undan ortiq elementlarning o'zaro munosabati bir butunlikni tashkil etadi”[Xolmanova,2020,12].

Til odam miyasining turli, xususan Broca va Wernicke sohalarida ishlanadi. Odamlar tilni yosh bolalik paytidagi ijtimoiy o'zaro munosabat orqali o'zlashtiradilar va o'rtacha uch yoshga kelib ravon gapira oladilar. Til ishlatish odam madaniyatiga chuqur singgan. Binobarin, til faqatgina muloqot vositasi bo'lib qolmay, balki individuallik, ijtimoiy stratifikatsiya, parvarish va ermak kabi ijtimoiy va madaniy rollarga ham ega.

Sifat (tilshunoslikda) — predmet belgisini bildiruvchi so'zlar turkumi. Grammatikada belgi so'zi keng tushunchali bo'lib, u belgini rang-tus, hajm, shakl ko'rinish, xususiyat va shakliga ko'ra bildiradi: qizil, keng, yoqimli va boshqa Shu xususiyatlariga ko'ra, sifatlar ma'nosiga qarab bir necha turga bo'linadi: rang-tus bildiruvchi sifatlar — oq, sariq, qizil, nimrang kabi; mazata'm bildiruvchi sifatlar — shirin, nordon, achchiq, bemaza kabi; xususiyat bildiruvchi sifatlar — mehribon,

sodda, mug‘ombir, yuvosh kabi; shakl ko‘rinish bildiruvchi sifatlar — gavdali, novcha, uzunchoq, yassi kabi; hajm o‘lchov bildiruvchi sifatlar — keng, tor, katta, og‘ir, yengil kabi va boshqalar.

Sifat turkumi o‘ziga xos so‘z yasalishi va morfologik tizimiga ega. O‘zbek tilida yasama sifatlar, asosan, sifat yasovchi affikslar yordamida xreil qilinadi: aqli (aql+li), hosildor (hosil+dor), serqirra (ser+qirra) va sh.k. Sifatning morfologik belgisi — daraja kategoriyasiga egaligidir. Sifat bildiradigan belgi daraja nuqtai nazaridan 3 xil bo‘lishi mumkin: me’yoriy, me’yordan ortiq (yuqori) va me’yordan oz (kuchsiz, past). Shunga ko‘ra, sifatning 3 xil daraja kategoriyasi farqlanadi: oddiy daraja — maxsus ko‘rsatkichi yo‘q va u belgining me’yoriy (ortiq — kamlik, kuchli — kuchsiz va sh.k.ga befarq) holatini bildiradi: yaxshi, katta, shirin, xunuk kabi; orttirma daraja — bu darajaning ham maxsus morfologik ko‘rsatkichi yo‘q. Belgining ortiqligi ma’nosi o‘zbek tilida bir necha usul bilan ifodalanadi. Masalan, fonetik usul: sapsariq, ko‘mko‘k, baland (unlini cho‘ziq talaffuz etish); leksik usul (maxsus so‘zlar yordamida): juda kuchli, nihoyatda go‘zal kabi; analitik usul: shirindan shirin, qo‘poldan qo‘pol kabi; ozaytirma daraja shakli roq affiksi yordamida yasaladi: yaxshiroq, balandroq, sho‘rroq kabi. Sifatlar otlashuvi mumkin (qarang otlashuv): Yaxshi topib gapirar, yomon qopib gapirar. Qozonga yaqin yoursang, qorasi yuqar; yomonga yaqin yoursang, balosi yuqar.

A.P.Yakubinskiy quyidagi ta’rifni keltiradi: Ot bilan sifat o’rtasida grammatic jihatdan dastlab hech qanday farq sezilmaydi. Har ikkala grammatic kategoriya ham ot turkumidan kelib chiqadi, ya’ni biri predmet nomini anglatsa, ikkinchisi belgi nomini anglatadi. Shuningdek, N.F.Qatanov ham ot va sifatni bir-biridan ajratmagan [Sodiqova.1974,4].

Sifat ba’zan fe’lga bog‘lanib, harakatning belgisini bildirishi mumkin. Bunday holda sifat ravish kabi gapda hol vazifasini bajaradi: U do‘sining yuragida kechayotgan tuyg‘ularni yaxshi tushunardi.

Belgini to’g’ridan to’g’ri ifodalaydigan va uni darajalab ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo’lgan sifatlar asliy sifatlar deyiladi: go‘zal, chiroyli, shirin, oq.

Belgini to’g’ridan to’g’ri emas, balki boshqa bir tushunchaga nisbatlagan holda ifodalaydigan va darajalab ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo’lmagan sifatlar nisbiy sifatlar deyiladi: qishki, ko‘chma, derazali, devoriy.

Sifat darajalari:

- 1) Oddiy daraja
- 2) Orttirma daraja
- 3) Qiyosiy daraja
- 4) Ozaytirma daraja

Belgining odatdagi me'yorda ekanligini bildiruvchi va boshqa darajalar uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi sifat shakli oddiy daraja shakli deyiladi: oydin, orasta, sersuv, badavlat.

Belgining me'yordan biroz kam ekanligini qiyosan ifodalaydigan sifat shakli qiyosiy daraja shakli deyiladi.

Sifat leksemaga shakl o'zgarishi xos emas, lekin sifat leksema ot leksemaga to'g'ridan to'g'ri bog'lanmaydi. Sifat leksema bilan (SL) sifat leksema shakl (SLsh) o'zaro qism bilan butun munosabatini aks ettiradi. Sifat leksema shakl yuzaga kelishi uchun sifat leksema ma'lum bir sintaktik vazifa bajara oladigan shaklga kirishi lozim. Sifat leksema bajaradigan birlamchi sintaktik vazifa – sifatlovchi bo'lishi. Demak, sifat leksema shakl yuzaga kelishi uchun sifat leksemaga "sifatlovchi" sintaktik semasi qo'shiladi, shunga ko'ra "sifat leksema sifatlovchi sintaktik semasi sifat leksema shakl" qolipi haqida gapirish mumkin. Sifat leksema shakl nutqda asosan ana shu ko'rinishda namoyon bo'ladi: jirkanch hasharot, otashin nutq, ozg'in barmoqlarini, sevimli ashulasini, quvnoq kulgi bilan, qalin sochlarini, qoloq xo'jaliklarni, katta qurilishlar, kechki shabada, kulrang osmon, shirin suhbat, qaynoq suv, loyqa daryo, yengil kuy, yovvoyi o'tlar va boshqalar. [Rahmatullayev, 2006, 226].

Xulosa. O'zbek tili morfologiyasida sifat kategoriyasi boshqa so'z turkumlari qatori muhim o'rinni egallaydi. Sifat mustaqil so'z turkumi bo'lib, shaxs va predmedlarning belgisini bildiradi. Sifatning o'ziga xos maxsus morfologik belgisining yo'qligi, sifat yasovchi affikslarning nihoyatda turli-tumanligi, ba'zan sifatlarni aniqlashda ma'lum qiyinchilk tug'diradi. Ayrim so'zlar tashqi ko'rinishidan otga ham, sifatga ham, ravishga ham juda o'xshash bo'ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva O. Til korpuslarida lingvistik annotatsiya va uning prinsiplari // Узбекские национальные образовательные здания теоретическое и практическая создание вопросы международная научно-практическая конференция. – Toshkent, 2022.
2. Abdullayeva O., Bozorqulova O'. Korpus lingvistikasida lingvistik tahlillar: muammo va yechimlar // O'zbek tili tadqiqi va ta'limi muammolari. Toshkent, 2021.27.10. 296-302-b.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent, 2006.
4. Sodiqova M. Hozirgi o'zbek tilida sifat. – Toshkent, 1974.
4. www.tsuul.uz
5. Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. -Toshkent, 2020.
6. „Umumiy filologianing dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Andijon.2023-yil,14-iyun.